Sherg‘ozixon



Sherg‘ozixon

(?, Buxoro – 1727 yil dekabr, Xiva)

(1715-1727)

Xiva xoni. ***Shayboniylardan***. ***Jonto‘raxon***ning o‘g‘li. Madrasada tahsil olgan. 1715 yil Yodgorxon vafotidan so‘ng, Buxorodan keltirilib Xiva taxtiga o‘tqazilgan. Sherg‘ozixonga qarshi Orol bo‘yida yashovchi qoraqolpoqlar Ishimxon boshchiligida isyon ko‘tarishgan. Sherg‘ozixon ular ustiga qo‘shin tortib katta o‘ljalar, ko‘plab asirlar bilan qaytgan. 1715 yil Sherg‘ozixon Xurosonga yurish qilib Mashhadni egallagan, Nishopurni qamal qilib egallay olmagan (1716). Sherg‘ozixon hukmronligi davrida Xiva xonligiga qarshi Rossiya bosqinchilik hamlasini boshladi. Rossiya podshisi ***Pyotr I*** 1714 yili ***Bekovich-Cherkasskiy*** harbiy ekpeditsiyasini Xivaga yubordi. ***Bekovich-Cherkasskiy*** harbiy ekpeditsiyasining qirib tashlanishi (1717) Xiva-Rossiya munasabatlarini keskinlashtirib yubordi. Munosabatni yumshatish uchun 1720 yil Xiva elchilari Rossiyaga jo‘natilgan, lekin elchilar a’zosi qamoqqa olingan, ulardan atigi bir kishigina Xivaga qaytishga muvaffaq bo‘lgan. Rossiya hukumati Xiva xonligi orqali O‘rta Osiyoga kirib kelish fikridan voz kechmagan, bu paytda Rossiyada Buxoro xonligining Qulibek boshchiligidagi elchilari bor edi. Rossiya hukumati F. Benevenini ularga qo‘shib Buxoroga jo‘natgan va Buxoro xonligini Xivaga qarshi gij-gijlagan. Sherg‘ozixon Orol bo‘yidagi isyonkor qabilalar ruslarni Xivaga boshlab kelishidan va o‘rniga Buxorodan keltirilgan (1721) Temur sultonni xon qilib ko‘tarishlaridan xavotirda edi. Temur sulton xonlikdagi Vazir, Gurlan, Shohobod, Bag‘lon, Uyg‘ur, Yangi Urganch, Xonqa va Xazoraspni olgan bo‘lsa-da, butun xonlikni egallay olmagan. Xonlikdagi ichki kurashlar Sherg‘ozixon vafotiga qadar davom etgan. Sherg‘ozixon Xivadagi madrasa (Sherg‘ozixon madrasasi) qurilish chog‘ida mashhadlik g‘ulomlar tomonidan o‘ldirilgan. Munisning yozishicha, Sherg‘ozixon odil, ma’rifatparvar hukmdor bo‘lib, ko‘p vaqtni ilm ahli bilan

suhbatda o‘tkazgan. uning davrida ilm-fan va she’riyat rivojlangan.

2023-11-05 18:23:30